

MOYCHECHAK (MATICARIA) O'SIMLIGINING AHAMIYATI

D.G'.Sodiqova

DTPI o'qituvchisi

Qurbonova Shodiyona

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11065501>

Annotatsiya. *BMoychechak (romashka) tabiat dorixonasidagi eng foydali va samarali o'simliklardan biri. Bu o'simlik bosh, miya, tish, quloq, ko'z og'riqlarini va boshqa xastaliklarni davolashda keng qo'llaniladi. Asosan mikroblarga qarshi kurashish xususiyatiga ega bo'lib, ichakda bijg'ish jarayonini kamaytiradi, allergik reaksiyalarni susaytiradi, safro ajralishini me'yorlashtiradi.*

Kalit so'zlar: *Dorivor o'simliklar, moychechak, gultojbarglar, plantatsiya.*

THE IMPORTANCE OF THE CHAMOMILE (MATICARIA) PLANT

Abstract. *Chamomile is one of the most useful and effective plants in nature's pharmacy. This plant is widely used in the treatment of headache, brain, tooth, ear, eye pain and other diseases. Basically, it has the ability to fight against microbes, reduces inflammation in the intestines, reduces allergic reactions, and normalizes the secretion of bile.*

Key words: *Medicinal plants, chamomile, marigolds, plantation.*

ЗНАЧЕНИЕ РАСТЕНИЯ РОМАШКИ (MATICARIA)

Аннотация. *Ромашка – одно из самых полезных и эффективных растений в природной аптеке. Это растение широко применяется при лечении головной, мозговой, зубной, ушной, глазной боли и других заболеваний. По сути, он обладает способностью бороться с микробами, уменьшает воспаление в кишечнике, снижает аллергические реакции, нормализует выделение желчи.*

Ключевые слова: *Лекарственные растения, ромашка, бархатцы, плантация.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o'simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o'tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o'simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklardan biri moychechak hisoblanadi.

Moychechak sugʻoriladigan tuproqda manzarali oʻsimlik sifatida parvarish qilinadi. Bir tup oʻsimlikda 6-8 savatda 120-140 dona gul shakllanadi. Oʻsimlik tanasi yer bagʻirlab oʻsadi (1-rasm). Oʻsimlik miqyosida turli uzunlikdagi barglar oʻchraydi. Bu barglarning uzunligi 0,3 sm dan 3,5 sm gacha yetadi. Barglari va turi rangdagi gullari manzaralilik xususiyatini koʻchaytiradi. Generativ novdaning uchki qismida bir dona toʻpgul shakllanadi[1].

1-rasm. Moychechak (Matricaria) oʻsimligi

Gʻunchalarning toʻliq yetilgan holga boʻlgunicha 10-15 kun muddat talab etiladi.

Gʻunchalarning uzunligi ham yetilish muddatlariga mos tarzda 0,2 sm dan 2 sm gacha yetadi. oʻsimligining jamoasida qizil va sariq rangli gultojibarglari oʻchraydi. Koʻpincha oq rangli gullari boʻladi. Moychechak gullari savatchada joylashadi. Changchi gullari cheksiz.

Gultojibargining chetlari ajralgan boʻlib, ularning soni 5 donani tashkil etadi (rasm).

Urugʻchi gullari ikkita mevachi bargning qoʻshilishidan xosil boʻlgan bitta urugʻchidir[3],[4].

Dorivorlik xususiyati: Moychechak gulining gul savatchalari tarkibida efir moylari, flavon glikozidlar, kumarinlar, karotin, S vitamini, oqsil oshlovchi, achchiq va shilliq moddalar bor. Ibn Sino taʼriflaganidek, moychechak qizdiruvchi va xilti etiltiruvchi xususiyatga ega.

Tiqilmalarning va tomirlarning ogʻizlarini ochadi, terlatadi. Erituvchi va suyultiruvchi taʼsirga ega. Meʼdadagi issiqdan boʻlgan shishni va qotib qolgan qonni eritadi, sovuqdan boʻlgan shishlarni yoʻqotadi. Oqma yaralarda foyda qilib, qovjiragan yaralarni koʻchiradi, tuzalishi qiyin yaralarni tozalaydi. Mushak va asab jarohatlarida davo boʻlib, yangi uzilgan guli hidlansa, uxlatadi. Peshob, savdo va balgʻamni soʻradi, bivosirni davolaydi, qovuq ogʻrigʻiga, taloq qattiqligiga shifo boʻladi. Shuningdek koʻz ogʻrigʻida, koʻz nuri xiralashganida, toshmalarda, qichimada foyda qiladi. Xalq tabobatida moychechak gullaridan tayorlangan dorivor vositalar (qaynatma, damlama, malham, sharbat, yogʻ) miya, bosh, tish, quloq, koʻz, ogʻriqlarini, oshqozon-ichak, asab, oʻpka, jigar, buyrak, shamollash va boshqa kasalliklarni davolashda keng qoʻllaniladi.

REFERENCES

1. Тахтаджян А.Л. Систематика и филогения цветковых растений. – М.- Л.: Наука, 1966. – 611 с.
2. Тухтаев Б.Е. Интродукция лекарственных растений на засоленных землях Узбекистана: Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент, 2009. – 38 с.
3. L.H. Yoziyev, Sh.A. Samatova. Manzarali oʻsimliklar / Darslik / Qarshi: —"Sharq" nashriyoti, 2023. – 335 b.
4. Қаландаров М.М. Манзарали боғдорчилик. Тошкент: Сано-стандарт, 2014. – 232 б.